

## О‘ZBEK DIALEKT VA SHEVALARIDA QO‘LLANILUVCHI AYRIM LEKSIK BIRLIKLAR VA ULARNING IZOHI

*Yallayeva Rayxona Shodiyar qizi*

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

*Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li*

*Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek shevalariga oid ba’zi so‘zlar izohlar berildi. Bilamizki, adabiy tilning asosini xalq shevalari tashkil qiladi. Adabiy tilni mukammal o‘rganishda dialiktal so‘zlarni bilish muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib maqolalar ayrim sheva xos so‘zlarning ma’nolariga to‘xtalib o‘tildi.

**Kalit so‘zlar:** qarluq, qipchoq, o‘g‘uz, lahja, dialik, sheva, ergachak, erish, ertachi, esaymoq, esi og‘moq, qorabaliq shamak, qoravaraq, qorma, shirmoybaliq.

Sheva o‘zi (forscha - usul, harakat tarsi) - ya’ni tilning fonetika, grammatika va lug‘aviy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga xos bo‘lgan eng kichik hududiy ko‘rinishi sezilarli lisoniy tafovutlari bo‘lmagan bir yoki bir necha aholi hududida yashovchilarning so‘zlashuv vositasi sifatida qo‘llanilib kelmoqda. Sheva boshqa sheva tizimlaridan fonetika, grammatika, so‘zlar yasalishi va lug‘aviy belgilariga ko‘ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud boladi. Sheva so‘zlarga qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari va sotsial chegaralangan so‘zlarni misol qilib olsak bo‘ladi.

Professor H.Jamolxonov lahja va shavalarga quydagicha ta’rif beradi:

“Lahja - leksik, fonetik, grammatik umumiylik asosida birlashgan, shevalar yig‘indisi. U dialekt nomi bilan ataladi.

Sheva - muayyan til o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismi”. [1:18]

ERGACHAK so‘zi ya’ni yonma-yon qalamadan yasalgan ustiga ko‘rpa-to‘shaklarni yig‘ib qo‘yishga mo‘ljallangan anjom hisoblanadi. Masalan, Qizlar ergachakning pastiga turli xil yostiqlarni, so‘ngra ko‘rpachalarni taxlab qo‘ydilar.

ERISH Matoning uzunasiga o‘tgan ip; o‘rish. Kelajak bilan quyosh arqon-erish payvasta. Atlaslarga burkadi Vatanning har yog‘in. (G‘afur G‘ulom, Onaxonlarga).

ERTACHI (Surxandaryo) Erta. “O‘limdan boshqa hamma ishning ertachisi yaxshi” degan gaplar bor. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). Sut sotuvchi bola o‘sha kuni kechga dovur ko‘z o‘ngimdan ketmadi. Ismi juda chiroyli ekan: Umid. Ishdan ham, uyda ham u haqida o‘yladim. Keyingi kun atay ertachi tushib bolani qiziqsinib kuzatdim. (Luqmon Bo‘rixon, Sut sotuvchi bola). – Ertachi ekkankan, - dedim men

merovsirab, xuddi o‘zim yerga urug‘ qadaganday. (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor orolagan so‘qmoqlar).

ESAYMOQ (Qashqadaryo) Ulg‘aymoq – Nimaga chiroqni yoqmadinglar, ish buyurdi Roziya esayib qolgan qizlariga, - bularga sovchi keladigan bo‘lib qoldi-yu, haliyam qo‘g‘irchoq o‘yinidan bo‘shamaydi, - yo‘liga tanbeh ham berib qo‘ygan bo‘ldi. (Hakim Sattoriy. Sog‘inch).

ESI O‘G‘MOQ Jinni, tentak. Uning nimaga bunday deytganini anglolmadim. Esi og‘maroq bo‘lsa kerak, degan xayolga bordim. (Dilmurod Sodiqov, Najot daraxt). (2: 106)

CHANTAG‘LAMOQ Tirnamoq, chandiqlamoq. Baytlaringiz goh guldirlar, goh xanjar, goh palaxmon, dushman boshlarin yanchar. Yov mard bo‘lsa, ko‘ksingga shart tig‘ sanchar, Nomardlar oq yuzingni chantog‘lar ko‘p. (Mantazar Abdulhakim).

CHAPAL Chevar. Jumagul shunday tez to‘qir ediki dugonasi uning ketidan ulgurolmasdi: - Chiqon buncha chapalsan, - deb qo‘yard (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm).

CHAQA Go‘dak, chaqaloq. Chaqa faryodidan yetti chinorning yetmish tomiri zirqillaydi... (G‘ozi Rahmon, Enabuloq).

CHAQCHIG‘AY Qarchig‘ay. Bir - biriga gal bermay, Sayrar mayna chaqchig‘ay. (Tursunboy Adashboyev, Arqitdan).

CHARA Tog‘ara. - Inanngiz tug‘dimi? – Yo‘q, qisir qolganmi, deb qo‘rqaman. - Charadakkina yelini bor edi-ku. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

CHARANA Qo‘zi, uloq. Qolaversa, har kim ham tamog‘idan orttirib, charanani chorigach olib chiqolmaydi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

CHAQIL Mayda toshli yer. Hamma joyda chaqil, ya‘ni oftob birinchi tushadigan yer bo‘lardi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). Chaqil taraflar devor zihlarini selgidi, poyabzalga loy ilashtirmay yurish mumkin bo‘ladi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

CHAQIMTOSH Bolalar o‘yini. Endi ular oqsuyak, chillak, oq terakmi - ko‘k terak, lanka; qizlar mohmak, chaqimtosh, o‘ynamayaptilar. (Sobir O‘nar, Bolalik bahorlari).

CHARNAVUQ Ombir. Tishlab turar eding Vatanni mahkam, Charnovuq labingni yirardi nuqul. (Eshqobil Shukur, Hamal ayvoni). Bag‘rimni changallab yuldi charnovuq, O bag‘ri shamolim, chiltorim charnar. (Eshqobil Shukur, Oraliqlarda). (2:367)

Ma‘lumki, har qanday til leksikasi ikki xil bo‘ldi, ya‘ni ular ichki va tashqi manbalardir. Tashqi manba o‘z-o‘zidan chetdan so‘z olish orqali, ichki manbalar esa, mamlakat hududidagi ma‘lum hududiga shevalardan so‘z olish orqali hozirgi kunda “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da ularning bir qanchasi ayni shevaga oid so‘zlar hisoblanib kelmoqda. Bunda esa tilning taraqqiy topishida yanada tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Yuqorida o‘rganilishga asos bo‘lgan ma‘lum shevaga oid so‘zlar esa, nafaqat o‘zi

foydalaniladigan hudud, blki boshqa hudud kishilari uchun tushunarli bo‘lib bormoqda va bunday so‘zlar o‘zbek dialektologiyasining anchagina qismini tashkil etadi, keyinchalik bu so‘zlar umumiy so‘zlar doirasiga ham kirishi kutilmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jamolxonov H. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent. Talqini 2005. 272 bet.
2. Musayeva F. “O‘zbek xalq so‘zlar” .Toshkent . 2023. 367 bet.
3. <https://wikipedia.org>